

ICHKI AGRAR BOZOR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH ORQALI OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASH YO‘LLARI

Aliev Yashnarjon Egamberdievich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik” kafedrası

i.f.d., professor

E-mail: ya.aliyev@tsue.uz

Annotatsiya

Ushbu maqolada agrar sohada qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozori faoliyatini kompleks ravishda, erkin bozor qonunlari doirasida rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish kabi masalalar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: global iqlim o‘zgarishi, ichki agrar bozor raqobatbardoshligi, oziq-ovqat xavfsizligi, shartnoma munosabatlari, sog‘lom iqtisodiy raqobat, ekologik muvozanat, huquqiy sharoit, o‘rtacha baho, mezon va ko‘rsatkichlar tizimi.

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы разработки научно-практически значимых предложений и рекомендаций по комплексному развитию деятельности рынка сельскохозяйственной продукции в аграрном секторе на основе принципов свободного рынка. Особое внимание уделено формированию конкурентной среды, обеспечению продовольственной безопасности и устойчивому развитию аграрного рынка в условиях современных экономических и экологических вызовов.

Ключевые слова: глобальное изменение климата, конкурентоспособность внутреннего аграрного рынка, продовольственная безопасность, договорные отношения, здоровая экономическая конкуренция, экологическое равновесие, правовые условия, средняя цена, система критериев и показателей.

Abstract

This article addresses the development of scientifically and practically significant proposals and recommendations aimed at the comprehensive development of the agricultural products market in the agrarian sector within the framework of free market principles. The study focuses on improving market competitiveness, ensuring food security, and maintaining sustainable development of the agrarian market under current economic and environmental conditions.

Keywords: global climate change, competitiveness of the domestic agrarian market, food security, contractual relations, healthy economic competition, ecological balance, legal framework, average price, system of criteria and indicators.

KIRISH

Jahon qishloq xo‘jaligida mahsulot yetishtirish va sotish, resurslar xarid qilish tizimida shartnoma munosabatlarini joriy qilish, mahsulot yetishtiruvchilar o‘rtasida sog‘lom iqtisodiy raqobatni rivojlantirish muammolari hozirda jahonning yetakchi oliy ta‘lim muassasalari va ilmiy markazlari, jumladan Wageningen University

(Gollandiya), Cornell University Press (AQSh), China Agricultural University (Xitoy), Foreign trade regulation-United States, International Water Management Institute (IWMI), United Nations Food and Agriculture Organization (FAO), CGIAR, Global Forum on Agricultural Research (GFAR), International Agriculture Center (Netherlands) kabi bir qator universitet va ilmiy markazlarda tadqiq etilmoqda.

So‘nggi yillarda planetamizdagi global iqlim o‘zgarishi mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida ekologik muvozanatning buzilishi, sizot suvlarining ko‘tarilishi, yerlarning sho‘rlanish darajasining ortishi, tuproq tarkibida chirindining kamayishi oqibatida unumdorlikning pasayishi, mineral o‘g‘itlarni haddan tashqari ko‘p qo‘llash natijasida tuproq va suvning zaharli kimyoviy birikmalar bilan ifloslanishi kabi salbiy holatlarning kuchayishiga olib kelmoqda. Shu bois qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorini rivojlantirishning ekologik yo‘nalishdagi tadbirlarini ishlab chiqish ahamiyati ortib bormoqda. Jumladan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, resurslar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish jarayonida korxonalar faoliyatini ekologik nazorat qilish mexanizmlarini joriy etish tobora dolzarblashmoqda.

METODOLOGIYA

Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida analiz va sintez, induksiya va deduksiya, abstrakt-mantiqiy tahlil kabi statistik va iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy maqola natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ilmiy maqolani tayyorlash natijasida iqtisodchi olimlarning agrar bozorni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy qarashlarini qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish, tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan metodologik yondashuv va usullarning asoslanganligi, axborot bazasining rasmiy manbalardan olinganligi, shuningdek taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishda ilmiy-nazariy manbalardan keng foydalanilganligi bilan izohlanadi.


Maqolada agrar bozorlarni rivojlantirishni ta‘minlash mezonlari yuzasidan uslubiy yondashuvlar va uslublar, shuningdek qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish samaradorligiga ta‘siriga baho berish yo‘nalishlari yoritilgan.

Agrar bozor rivojlanishini ta‘minlash ma‘lum mezonlar va ko‘rsatkichlar orqali amalga oshirilishi lozim. Bozorlar faoliyatiga baho berish va ularni boshqarish imkonini beradigan mezon hamda ko‘rsatkichlar o‘z o‘rnida nisbiy taqqoslanishi lozim. Chunki boshqa bozorlar ham agrar bozor bilan o‘zaro bog‘liqlikda faoliyat yuritadi.

Bizningcha, asosiy mezon sifatida agrar bozor faoliyati uchun “teng iqtisodiy va huquqiy sharoit yaratish” asos sifatida qabul qilinishi lozim. Ammo ushbu mezon nazariy jihatdan to‘g‘ri bo‘lsa-da, undan amaliy muammolarni hal etishda foydalanish ancha murakkab. Shu bois mezon tanlashda agrar bozorning asosiy faoliyati o‘zaro bir-biri bilan uzviy bog‘liq deb qabul qilinishi talab etiladi va shu belgilangan mezon ko‘rsatkichlari asosida o‘rganiladi.

Demak, bozor munosabatlari rivojlanib borishi sharoitida agrar bozorni rivojlantirishdagi asosiy mezon sifatida “o‘rtacha imkoniyatga ega bo‘lgan agrar bozor subyektlarining tovar mahsuloti birligini tayyorlash (yetishtirish) hisobiga sarf

qiladigan ishlab chiqarish xarajatlarini qoplay oladigan darajadagi o'rtacha bahoda mahsulot sotishini ta'minlash" masalasi qabul qilinishi lozim (1-rasm).



1-rasm. Agrar bozorni rivojlantirishni ta'minlashning mezon va ko'rsatkichlari¹

Bunday mezonni qabul qilishning muhimligi shundaki, agrar bozor bugungi kunda turli raqobat muhitida yoki monopol sharoitda faoliyat yuritmoqda. Demak, monopol bozorga taklif etilgan mahsulot monopol bahoda sotiladi.

Ammo aksariyat hollarda raqobat sharoitida mahsulot sotayotgan qishloq xo'jaligi korxonalarini o'z xarajatlarini qoplaydigan darajadagi bahoda emas, balki amalda bozorda shakllangan bahoda mahsulot sotishga majbur bo'ladi. Bu esa ko'pincha fermer va dehqon xo'jaliklarining ishlab chiqarish xarajatlarini ham qoplaymaydigan bahoda mahsulot sotishga olib keladi. Mazkur vaziyat, asosan, saqlash qiyin bo'lgan va tez buziladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorlarida kuzatiladi.

Bugungi kunda iqtisodiy islohotlar olib borilayotgan davrda qishloq xo'jaligi tarmog'i iqtisodiyotning boshqa sohalariga nisbatan davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga ko'proq muhtojlik sezadi. Bunday holatda davlat buyurtmasi uchun mahsulot yetishtirish bilan shug'ullanayotgan fermer xo'jaliklarining zaruriy resurslarga bo'lgan talabi ortadi. O'z navbatida, bu fermer xo'jaliklariga davlat tomonidan huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy va moliyaviy yordam ko'rsatish zarurligini ko'rsatadi. Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirishda qishloq xo'jaligi mahsulotlari

¹ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan

bozorlarini rivojlanishini ta'minlash tizimini takomillashtirish uslublarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish zarur.

Bu agrar bozor faoliyatini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan uslublar qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorlarining erkin bozor tamoyillari asosida faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Shu orqali qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlari o'rtasida mahsulot yetishtirish, mavjud resurslardan foydalanish hamda xizmat ko'rsatish tizimlarida baholarning mutanosib shakllanishiga olib keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maqolada agrar sohada qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozori faoliyatini erkin bozor qonunlari doirasida rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, bular quyidagilardan iborat:

1) agrar bozor asosini tashkil qiluvchi qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorining tarkibi hamda ular faoliyatini uzviy bog'liq holda o'ziga xos rivojlantirish xususiyatlarining nazariy jihatlarini o'rganilgan;

2) agrar bozor tarkibi sifatida qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorining tarkibiy qismlari va ular faoliyatining uzviy bog'liqligini ilmiy jihatdan asoslash bo'yicha ilmiy xulosalar berilgan;

3) qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorini rivojlantirishni ta'minlash mezon va ko'rsatkichlari tizimini ilmiy asoslashga harakat qilingan;

4) qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorini rivojlanishini ta'minlash mezonlari va uslublari bo'yicha ilmiy tavsiyalar berilgan;

5) asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish tizimi samaradorligi va qishloq xo'jaligi uchun zarur qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozori rivojlanishining hozirgi holatiga baho berish nazariy jihatdan yoritib berilgan;

6) qishloq xo'jaligi mahsulotlari, agrosurslar va agroxizmatlar bozorlarini rivojlantirishda davlat tomonidan muvofiqlashtirish yo'llari yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan;

7) ichki agrar bozor raqobatbardoshligini oshirish orqali oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash yo'llarini ta'minlash yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-nazariy takliflar tayyorlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdurahmonov Q.X. Agrar iqtisodiyot va agrobiznesni rivojlantirish masalalari. – Toshkent: "Fan", 2020.

2. Aliyev Y.E. (2020). Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda agrar bozorni rivojlantirish masalalari. (21). https://scholar.google.com/scholar?cluster=5096416743714453245&hl=ru&as_sdt=2005&scioldt=0,5

3. Aliyev Y.E. (2020). Qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorini rivojlantirishning o'ziga xos yo'nalishlari. Arxiv nauchnykh issledovaniy, (23).

<https://scholar.google.com/scholar?cluster=5882306098223300894&hl=en&oi=scholar>

4. Bekmurodov A.Sh. Ichki bozor barqarorligi va oziq-ovqat xavfsizligi masalalari. – Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2020.
5. Sabirov A.A. Oziq-ovqat xavfsizligi: nazariya, metodologiya va amaliyot. – Toshkent: “Iqtisod-Moliya”, 2019.
6. Sharipov Sh.Sh. Qishloq xo‘jaligida raqobat muhitini shakllantirish va samaradorlik. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2021.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:	Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri:	Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri:	Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih:	Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar:	Sadikov Shoxrux Shuxratovich Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, dekabr, 12-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlararo standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**